

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY USLUBIYOTI

Abdusamadova Go‘zal Kamoliddin qizi

Termiz davlat pedagogika institut Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya ta‘lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali biologiya o‘qitish metodikasida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar, biologiyani o‘qitishda didaktik o‘yinli darslardan foydalanish, biologiyani o‘qitishda muammoli ta‘lim texnologiyalarini dars davomida qo‘lash, modulli ta‘lim texnologiyalari va modulli darslarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda biologiya darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari haqida nazariy ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, optimallashtirish, lokal modul, xususiy metodik daraja, umumiy metodik daraja, xalq pedagogikasi, demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, didaktik o‘yin texnologiyalari, muammoli ta‘lim texnologiyasi, modulli, loyihalash va an‘anaviy ta‘lim texnologiyalari.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические технологии, используемые в методике преподавания биологии, использование дидактических игровых уроков в преподавании биологии, использование проблемных образовательных технологий в преподавании биологии во время урока, модульные образовательные технологии и модульные уроки. его характеристики и способы использования современных информационных технологий на уроках биологии.

Ключевые слова: педагогическая технология, оптимизация, локальный модуль, специальный методический уровень, общий методический уровень, народная педагогика, демократизация, гуманизация, дидактические игровые технологии, технология проблемного обучения, модульные, проектные и традиционные технологии обучения.

Abstract: Pedagogical technologies used in biology teaching methodology, the use of didactic game lessons in biology teaching, the use of problem-based educational technologies in biology teaching during the lesson, modular educational technologies and modular lessons are discussed through this article. theoretical information about its characteristics and ways of using modern information technologies in biology lessons.

Key words: pedagogical technology, optimization, local module, special methodological level, general methodological level, folk pedagogy, democratization, humanization, didactic game technologies, problem-based learning technology, modular, design and traditional education technologies.

Pedagogik texnologiya – o‘qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qoplash, ularning o‘zaro ta‘sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Inson salohiyati deyilganda, o‘qtuvchining pedagogik va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati, texnik resurslar deganda o‘qitish metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda.

Hozirgi zamon ta‘lim tizimida hukmronlik qilayotgan an‘anaviy ta‘limni mazmunan yangilash va ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan texnologiyalarni didaktik maqsadlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya; 2. O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya. 3. Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar. 4. O‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash asosidagi pedagogik texnologiya. 5. Xalq pedagogikasi metodlaridan foydalanishga asoslangan pedagogik texnologiya.

Quyida shu texnologiyalarga qisqacha to‘xtalamiz:

1. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya; Mazkur texnologiya o‘qtuvchi va o‘quvchi shaxsi o‘rtasidagi munosabatlarni mukammallashtirish, o‘quvchi shaxsiga individual yondashish, ta’lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish, ta’lim mazmunini insonparvarlik g‘oyalari bilan boyitishni nazarda tutadi.

2. O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya. Mazkur texnologiya biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Bu texnologiyalar guruhi didaktik-o‘yin, rivojlantiruvchi, muammoli, modulli va kommunikativ ta’lim texnologiyalarini o‘z ichiga oladi.

3. Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar biologiyani o‘qitishda ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish orqali samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Ularga dasturli o‘qitish, differentsial ta’lim, ta’limni individuallashtirish, guruhli va jamoaviy hamkorlik, uyg‘unlashtirilgan ta’lim texnologiyalari kiradi.

4. O‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash asosidagi pedagogik texnologiya. Mazkur texnologiya o‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining samaradorligini oshirish, aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish orqali mustaqil va erkin fikrlashni rivojlantirishni nazarda tutadi.

5. Xalq pedagogikasi metodlaridan foydalanishga asoslangan pedagogik texnologiya. Mazkur texnologiya shaxs kamoloti va tabiiy rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga asoslanadigan tarbiya texnologiyalaridan iborat.

Biologiyani o‘qitishda ushbu texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni mustaqillik printsiplari va Ona-Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qalbi va ongiga milliy istiqloq g‘oyalarini singdirish imkonini beradi. pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonida lokal (modul) va xususiy metodik darajada qo‘llaniladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Biz pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratdik:

1. Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

2. Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar. pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar guruhiga:

Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi; Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar; Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari; Ta'limni differentsiallashtirish va individuallashtirish;

Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar guruhiga: Didaktik o'yin texnologiyalari; Muammoli ta'lim texnologiyalari; Modulli ta'lim texnologiyalari; Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari; Loyihalash texnologiyasi; An'anaviy ta'lim texnologiyalari kiradi. Quyida biologiya darslarida foydalaniladigan didaktik o'yinli, muammoli, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish va loyihalash texnologiyalarning qisqacha tavsifi, ularga asoslangan darslarning o'ziga xos xususiyatlari, dars ishlanmalari berilmoqda.

Didaktik o'yin texnologiyalari: Biologiya darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga imkon beradi. Mahlumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi. Didaktik o'yinli darslarning syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferentsiyalar va uyin mashqlar kabi turlari bor. Mazkur metodik ko'rsatmada biologiya darslarida matbuot-konferentsiyasidan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Matbuot konferentsiyasi sinfdagi barcha o'quvchilarning o'quv - bilish faoliyati faol bo'lishi bilan xarakterlanadi. O'qtuvchining matbuot konferentsiyasi darsiga tayyorgarligi bir muncha murakkabroq. O'qtuvchi matbuot konferentsiyasini o'tkazishdan bir hafta avval sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'ladi. Ularning taxminan 30% parrandalar selektsiyasi sohasida ishlayotgan olimlar va parrandachilik fabrikalarining mutaxassisleri, qolganlari respublikamizda nashr qilinadigan gazeta va jurnallarning muxbirlari rolini bajaradilar.

Hozirda biologiyani o'qitishda ko'plab zamonaviy texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda, maqolada esa ushbu ma'lumotlardan qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Bugungi kunimiz zamonaviy asr texnologiyalar asri bo'lganligi tufayli har bitta soha kommunikatsiyalar bilan bog'langan

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ofurov A.T. “ Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi” Toshkent-2013
2. Tolipova J.O.: G‘ofurova A.T “Umumiy biologiya o‘qitish metodikasi” Toshkent sharq-2004
3. G‘ofurov A.T “Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi” TDPU.,T:2005
4. Amonashavili Sh.A., Lisenkova S.N. “ Pedagogik izlanish”, “O‘qtuvchi” 1990-yil